

O'ZBEKISTONDA PEDAGOG KADRLAR SIFATI VA ULARNI YETUK KADRLAR QILIB TAYYORLASHNI MOLİYALASHTIRISH MASALALARI

<https://doi.org/10.2689/zenodo.183164598>

Elmurzayeva Nigora

*Toshkent shahar Yangi hayot tumani 336-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Kadrlar bo'yicha menedjeri*

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagog kadrlar tayyorlash sifatini moliyalashtirish haqida turli mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash, ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida fikr yuritilgan va ta'lim tizimini moliyalash, ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlashdagi moddiy-texnik holatni yaxshilash bo'yicha, xodimlarni boshqarish tizimi haqida ochib berilgan.

Kalit so'zlar

pedagog kadrlar, moliyalashtirish, boshqaruv, ta'lim, xalq ta'limi, maktab, o'qituvchi, o'quvchi.

KIRISH

Jahonda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanish keng tadbiriq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi muammolar inson kapitali sifatining o'sishini susayishiga sabab bo'lmoqda. Pedagogika oliygohi bitiruvchisi, nafaqat fuqarolarni bilimli qilib tayyorlash va mamlakat inson kapitalini shakllantirish, shu bilan birga mavjud o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi.

Jahonda rivojlangan oliy ta'lim tizimida kasbiy faoliyat uchun mutaxassislar tayyorlash yo'nalishlaridan biri sifatida bo'lajak professor-o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, ularning individual ijodiy faolligini to'liq namoyon etish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, o'z bilimlarini oshirish, innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash muammolari alohida o'rin tutadigan jarayonida o'zlashtirilgan bilim zahiralari, ko'nikma va malakalarni jamlash, ushbu muammolarni muvaffaqiyatli hal etish oliy pedagogik ta'lim tizimini qayta qurish, uning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish, kadrlar

tayyorlash mazmunini ta'lim sohasidagi innovatsion tizimning yangi talablariga muvofiq takomillashtirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga oxirgi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida (iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda. Respublikamizda ham kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, umumta'lim maktablarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish obyektiv zarurat. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg'or horijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati va uni moliyalashtirish tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishimizga asos bo'ladi.

Ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, ta'lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining talab darajasida emasligi, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan Oliy ta'lim muassasalari (OTM)ning malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari bilan integratsion munosabatlaridagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida ta'limi tizimida ayrim fanlar (boshlang'ich ta'lim, rus tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, fizika va astronomiya) bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj qondirilmay qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kadrlar tayyorlash va pedagogik faoliyat bilan bog'liq ta'limotlar eramizgacha yaratilgan asarlarda ham o'z aksini topgan va Sharqda zardushtiylik ta'limotining manbai "Avesto" (eramizgacha I asr) da, Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" (VII asr) va "Hadisi sharif" (Imom al-Buxoriy "Al-jome' as-sahih", IX asr) da, O'rta Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlaridan Abu Nasr alFarobiy ("Fozil odamlar shahri", 20-asrning 70-80-yillari), Abu Ali Ibn Sino ("Donishnoma", XI asr), Burxoniddin Zarnudjiy (Ta'lum al-Mutaalallim, XII asr), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy ("Bo'ston", 1257, "Guliston", 1258), Alisher Navoiy ("Mukammal asarlar to'plami" 20 jildlik, 1987-2003) larning badiiy – falsafiy asarlarida, G'arbda Qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit, Suqrot, Aflotun, Arastu, Mark Fabiy Kvintilian, Yan Amos Komenskiy, Adolf Distegverg kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta'limotlarida, ma'rifiy-axloqiy asar tarzida maydonga kelib, pedagogik faoliyat va uning mazmuni to'g'risida qimmatli fikrlarni ifodalagan.

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti sharoitida pedagogik jarayonga "Onalar maktabi"(1632), "Buyuk didaktika" (Yan Amos Komenskiy, 1632), "O'qituvchilar uchun 33 qoida" (Adolf Disterverg, 1956), "O'qituvchiga ta'lim yo'lida o'quv qo'llanma"(1150), "O'rtoq, o'qituvchi, fan tanlash haqida"(1206) (Burhoniddin Zarnudjiy), "Nozik iboralar" (Az-Zamaxshariy, 1992), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib, 1439) kabi pedagogik

asarlari paydo bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda diniy va dunyoviy bilimlarni o'rgatuvchilarga qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Natijada pedagogik faoliyat yuzaga kelgan.

Pedagoglar tayyorlash hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo'lib qoladi. Keyingi davr Sharq va O'rta Osiyo allomalari, ma'naviyat va ma'rifat darg'alari pedagog kasbi mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi to'g'risida qimmatli so'zlarni aytganlar. Buni biz Abdulla Avloniy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdullo Oripov va kenja avlod ta'limotida yaqqol ko'ramiz.

E.A.Texanova bo'lajak pedagogning kasbiy komponentligini tahlil qilar ekan uning bilimi, kasbiy va hayotiy tajribasi, qiziqishlaridan foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatda uchraydigan real vaziyatlarda N.Muslimov o'z ilmiy izlanishlarida oliy ta'limni mazmungan modernizatsiyalashda asosiy vazifa sifatida ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.uzaga keladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatini ochib beradi.

B.Xodjayev esa ta'limni modernizatsiyalash – bu davlatning ta'lim sohasidagi siyosati asosini tashkil etib, ijtimoiy va umumxalq vazifasi sifatida u yaxlit ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilishidir. Modernizatsiya jarayoni davlat va jamiyat, ta'lim oluvchilar va tarbiyachilar, otaonalar hamda keng jamoatchilik qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, deb izohlaydi

P.Lutfullaev o'zining ilmiy izlanishlarida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari xususida to'xtalar ekan, globallashuvni oliy ta'limda to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishning mahsuli sifatida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, mazkur yondashuvlar o'z mohiyati va ta'sir doirasiga ko'ra oliy ta'lim tizimidagi akademik va tashkiliy strategiyalarni sifat menejmenti nuqtai nazaridan takomillashtirish, ta'limga kompetentli yondashuvni rivojlantirish, shuningdek kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimida sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga, innovatsion menejmentni joriy etishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA Pedagog kadrlar tayyorlash sifatini moliyalashtirish haqida gapirar ekanmiz, albatta, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning qarorva farmonlariga, shuningdek, yurtimizda qabul qilinayotga ta'limga taalluqli bo'lgan qonularga murojaat qilmaslikning imkoni yo'q deb o'ylaymiz. Dastlab, "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi

xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 5gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tanishib chiqsak.

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida jami 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta "Barkamol avlod" markazi mavjud bo'lib, ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodim faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institut faoliyat ko'rsatmoqda.

Amaldagi tartibga asosan xalq ta'limi muassasalari pedagoglari kamida 5-yilda bir marotaba o'z malakalarini oshiradilar. O'qituvchilar malaka oshirish davomida mamlakatimizda va jahonda pedagogika, psixologiya hamda o'quv fani bo'yicha erishilgan eng yangi yutuqlarni chuqur o'rganib, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan xabardor bo'lgan holda ularni amaliyotga tatbiq etib kelmoqdalar

Shu bilan birga, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy institutlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, dars berish sifati bugungi kun talablariga javob bermayapti. Xodimlar ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanmaydi, ularning faoliyatini tashqi baholash tizimi samarali yo'lga qo'yilmagan

Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish, bevosita, ta'lim tizimini moliyalashga borib taqaladi. Eski nashrdagi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga nazar tashlaydigan bo'lsak, garchi bu dastur O'zbekistan Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan bo'lsada tatqiqotimizga oid ba'zibir manbalarini ko'rib chiqaylik. Ushbu dasturning 4.8. bandida quyidagi so'zlar yozilgan.

Ta'limni va kadrlar tayyorlashni moliyalash tizimi takomillashtiriladi, uning ko'p variantli (budjetdan ajratiladigan va budjetdan tashqari manbalardan) tizimi joriy etiladi, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi pul bilan ta'minlashi rivojlantiriladi, xususiyl hamda chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etish rag'batlantiriladi.

Respublika fuqorolari uchun keyinchalik ularni to'lashning moslashuvchan tizimiga asoslangan ta'lim kreditlari berish mexanizmi shakllantiriladi. Uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda donorlar va homiylarning mavqeyi kuchayib boradi.

Pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish, tadbirkorlik, maslahat, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy hamda ustavda belgilab qo'yilgan vazifalarga muvofiq boshqa tarzdagi faoliyat hisobidan ta'lim muassasalarining daromadlari ko'payishi ta'minlanadi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining (keyingi o'rinlarda umumta'lim muassasalari deb yuritiladi) faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi.

Xodimlarni boshqarish tizimi deganda, korxonada band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va undan samarali foydalanish, ularning me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish bo'yicha o'zaro bog'langan iqtisodiytashkiliy va ijtimoiy tadbirlar tizimi tushuniladi. Shuni alohida takidlash joizki korxona samaradorligini oshirishda aniq va qulay tarzda ishlab chiqilgan tizimning o'rne juda kattadir. Tizimlashtirilgan korxonalarda xodimlar bilan ishlashning qulayligi, ya'ni berilgan topshiriqlarning ustidan nazoratni amalga oshirish to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va axborot almashinuv jarayoni oson kechishi bilan ajralib turadi. Tarkiban bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi.

"Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning 9-bobida ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash haqida va ushbu bobning 62-moddasida ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish to'g'risida so'z yuritilgan. Bu haqida yuqorida oldingi tahrirda ko'rib chiqdik.

Davlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag'lari hisobidan, shuningdek budjetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limda va boshlang'ich professional ta'limda ajratiladigan mablag'lar summaları O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi hamda ushbu mablag'lar tarbiyalanuvchilar va ta'lim oluvchilarning o'qish joyidagi ta'lim tashkilotlariga yo'naltiriladi

NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarida xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimlari o'rtasida uzluksizlik va uzviylik ta'minlanmaganligini ko'rsatdi. Natijada umumiy

o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari xodimlari faoliyati davomida fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilg'or xorijiy tajribalardan bexabar qolmoqdalar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini moliyalashtirish uchun eng avvalo iqtisodiy tomondan ta'minlanishi zarurdir. buning uchun quyidagi takliflarni beramiz:

- pedagog kadrlarni tayyorlovchi OTMlarga ilmiy darajali va yuksak bilimli kadrlarni ishga qabul qilish;
- umumta'lim muassasalarida o'quvchilar sonini kamaytirish;
- pedagog kadrlarni oylik maoshini oshirish;
- pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tekshirib turish uchun onlayn testlar o'tqizib turing;
- pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun chel el ta'lim tizimidan foydalanish;
- pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yangi darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. -Toshkent: O'zbekiston. 2020. -B. 143.
2. Axadjon o'g'li, A. A. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. Analysis of International Sciences, 2(1), 95-102.
3. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Analysis of International Sciences 2 (1), 87-91
4. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'CH TA'LIMDA SAHNALSHTIRISH FAOLIYATINI O'QITISH USULLARI. Analysis of International Sciences 2 (1), 35-40
5. O Maxliyoxon. (2024). BOSHLANG'CH TA'LIMDA BADIY O'QISHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Analysis of International Sciences 2 (1), 79- 86
6. O Maxliyoxon. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI 12 (1), 86-90

7. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, O. (2024). BADIY O 'QISH VA DRAMA O 'QUV KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 3(1), 27-32.
8. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
9. Maxliyoxon, O., & Jumagul, A. (2024). 7-11 YOSHLI BOLALARDA TEZ OQISH VA TEZ AYTISH MASHQLARINING XUSUSIYATLARI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 32-35.
10. Maxliyoxon, O. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARI BILAN MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 24-27.